

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK MULTIPLIKATSIYASINING BA'ZI MUAMMOLARI

Nurnazarov Xudoyberdi Doniyorovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriylar san'at va muhandislik grafikasi kafedrasini
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com*

Annotasiya. Inson hayotini san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom yaratgan asarlar, shoir yozgan she'rlar, raqqosaning raqsi, qo'shiqchi kuylaganda qo'shiq, tomosha qilayotgan filmlarimizdan tortib, insonning kiyinish madaniyati, so'zlashish odobi ham san'atdir. Mustaqilligimizning dastlabki yillardanoq yosh avlodni ertangi kunimizning haqiqiy vorislari etib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Multfilm yoshu-qarini birdek o'ziga tortadigan, inson qo'li bilan yaratiladigan betakror, rang-barang olamdir. Pekin multfilm asosan yosh tomoshabinlar uchun yaratiladi.

Kalit so'zlar: san'at, rassom, multiplikator, tasvir, davr, personaj.

Аннотация. Человеческая жизнь немыслима без искусства. Произведения, созданные художником, стихи, написанные поэтом, танцор, танцовщица, песня, когда поет певец, фильмы, которые мы смотрим, культура одежды человека, этикет речи — тоже искусство. С первых лет нашей независимости одним из самых актуальных вопросов было воспитание подрастающего поколения как истинных наследников нашего будущего. Мультфильмы — это уникальный, красочный мир, созданный руками человека, который привлекает и детей, и взрослых. Пекинский мультфильм в основном создан для юной аудитории.

Ключевые слова: искусство, живописец, мультипликатор, образ, период, персонаж.

Annotation. Human life is unimaginable without art. The works created by the artist, the poems written by the poet, the dancer, the song when the singer sings, the movies we watch, the culture of human dress, the etiquette of speech are also arts. From the first years of our independence, one of the most pressing issues has been to educate the younger generation as the true heirs of our future. Cartoons are a unique, colorful world created by human hands, which attracts young and old alike. Beijing cartoon is mainly created for young audiences.

Key words: art, painter, multiplier, image, period, character.

Inson xayotini san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom yaratgan asarlar, shoir yozgan she'rlar, raqqosaning, raqsi, qo'shiqchi kuylaganda qo'shiq, tomosha qilayotgan filmlarimizdan tortib, insonning kiyinish ma'daniyati, so'zlashish odobi xam san'atdir. San'atning inson xayotidagi roli katta. San'at insonni yovuzlikdan, g'azabdan yiroqlashtiruvchi vositasidir. Chunki san'at – go'zallik demakdir. Go'zallikni ko'rgan inson ezgulikka intiladi, ulug' ishlarga qo'l uradi, qalbida ezgulikka intilish kuchayadi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillardanoq yosh avlodni ertangi kunnmizning xaqiqiy vorislari etib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Zero, yosh avlodning to'gri kamol topishi porloq kelajagimiz garovidir. San'at esa yosh avlodning kamol topishida beqiyos axamiyatga ega. San'at yosh avlodga milliy qadriyatlаримиз, урф-одатларимиз, о'злигамизни anglash uchun kuchli ta'sir vositasidir. Multiplikasiya xam zamonaviy san'atning shunday turidir.

Multiplikatsiya (lotin tilida “multiplikatio”- ko'paymoq, kattalamoq, ko'payib bormoq ma'nolarini bildiradi) - tasvirlarni, xarakatga keltirishning texnikaviy usullaridan biri bo'lib, bu tasvirlarning ketma-ket bir-biri bilan. muayyan bir, vaqt oralig'ida joy almashinishdir. Animatsiya fransuzchada “animation” — jonlanish, jonlanmoq ma'nolarini bildiradi. Mashxur multfilm mutaxasisi F. Xitrukning fikricha, “multiplikatsiya”, “multiplikator” so'zlarining kelib chiqishi multfilm yaralishida qo'llanadigan texnologiya, ya'ni usul bilan bogliq. Bu texnologiya qog'ozga tushurilgan tasvirlarni ustma- ust qo'yib multfilmni tasvirga olishdir. Vaqt o'tib bu san'at multiplikasiya deb yuritila boshladi.

Multfilm yoshu-qarini birdek o'ziga tortadigan, inson qo'li bilan yaratiladigan betakror, rang-barang olamdir. Pekin multfilm asosan yosh tomoshabinlar uchun yaratiladi. Usib kelayotgan yosh avlod kamol topishida multfilmning o'mni bulakcha. Bolaga u ko'rgan, eshitgan xolisalar ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu ta'sir uning ma'naviyatiga, dunyoqarashiga, xayotiy faoliyatiga, bir so'z bilan aytganda, ongiga nisbatan bo'ladi. Multfilm yaratishda buni xisobga olish juda muxim. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlod — bizning kelajagimizdir.

Yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bolaning ongi ana shu multfilmlarni ko'rish davomida shakllanib boradi. “Multiplikatsiya — bu fikrlash usuli”, degan edi mashxur rejissyor-multiplikator G.Bardin. Shunday ekan, multfilm senariysiga mos personajlar, fikrlashga chorlaydigan xolatlarni qo'llamasdan multfilm yaratib bo'lmaydi. Multfilm bolaning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda, uni faqat ezgulikka yetaklansa, multfilmdagi personajdar, ranglar, senariyning axamiyati kattadir. Shunday ekan, multiplikatorlarga juda ma'suliyatli vazifa yuklanadi.

Xozirgi paytda O'zbek multiplikatsiyasi rivojlanish bosqichida, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois zamonaviy O'zbek multfilmlarini yaratish bilan bog'lik ba'zi muammolar mavjud.

Bu muammolardan eng muximi, yuqori saviyali animatorlarning va mutaxassislarning yetishmasligidir. Mutaxassislarning shu soxaning ustasi emasliga, multfilmlarimizning darajasi pastga tushishiga sabab bo'lmoqda. Malakali mugaxassislar yetishib chiqishi uchun esa oliyoxlarda ta'limni yanada kuchaytirish va chet ellik mutaxassislar bilan xamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Mashxur rejissiyor Y.Norshtey: “Multiplikatsiyada eng muximi — o’z xis-tuyg’ularini badiiy ifoda eta olishdir” deydi. Chunki animatorlar bilimli va yetarli darajada amaliyat o’tagan bo’lsalar, o’z xis-tuyg’ularini personajlar orqali ta’sirchan tarzda tomoshabinga yetqazib bera oladilar.

Shuningdek, senariylarning sayozligi multfilmlarning bir xil qolipga tushib qolishiga olib kelmoqda. Senariydagi voqealar, davr, personajlar boshqa senariyda takrorlanmasligi kerak. Senariyalarimizga bir oz yangilik kiritса, milliylik ruxdagi zamonaviy multfilmlar yaratishimiz mumkin.

Muammolar, oz bo’lsada, texnika masalasiga xam borib taqalmoqda. Multfilm kino studiyalarida 3-4 animator ish olib boradi. Aslida esa 20 dan ortiq animator ishlashi kerak. Buning uchun esa studiya zarur texnika vositalari bilan ta’milanishi lozim. Texnika animatorlarning ishini osonlashtiruvchi, vaqtini tejab, ish samaradorligini oshiruvchi vositadir. Texnika nafakat vaqtini tejaydi, balki animatsiya yaratish jarayonida 2D, 3D o’lchamlarini qo’llash imkonini beradi. Bu o’lchamlar multfilm personajlarini xajmli qilib ko’rsatadi, ularga ishonarli tus beradi va ta’sirchanlikni oshiradi.

Muammolarning yechimlaridan yana biri chet el multfilm kompaniyalari bilan (masalan: WaltDisney, Pixar) xamkorlik o’rnatish, ma’lumot almashish va shu soxa vakillarini malaka oshirishga jo’natish lozim. Bu esa milliy ruxdagi zamonaviy multfilmlarni yaratishimiz va yosh tomoshabinlarni chet el multfilmlarini emas, o’zimizning milliy multfilmlarimizni ko’proq ko’rishi uchun asos bo’lar edi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda multiplikatsiya san’ati rivojlanish bosqichida. Bizning imkoniyatlarimiz esa keng, faqat ulardan foydalana olishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O’zbekistan, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.- T.:O’zbekiston, 2017.-1046.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O’zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Xudoyberdiyev, M. (2021). “Manzara rangtasvirini” o ‘qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
5. Xudoyberdiyev, M. (2021). Umumiyo‘tta ta’lim tizimida tasviriy san’at o ‘quv fanini o ‘qitishning ahamiyati. *Физико-технологического образования*, (5).

6. Жабборов, А. Ж., & Пардаев, Б. А. (2020). Обучение в рамках технологического и трудового образования. *Научное знание современности*, (1), 19-22.
7. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-хунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
8. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
9. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
10. Boltaboevich, B. B., & Ogiloy, K. (2008). Master of historical portrait genre, a teacher who created a school in the field of fine arts people's artist of Uzbekistan professor Malik Nabiev (1906-2008)
11. Jurnal "Iskusstva kino". 1992. № 8. - B.. 65.
12. Jurnal,"Ogrnek" 1988, №43.
13. O'zbekfilm" kinostudiysi, Postanovkachi rejissyor, Mavzur. Maxmudovning ma'ruzasi. 2014 y. 5-oktyabr